

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
“O‘ZBEKISTON MILLIY
ELEKTR TARMOQLARI”
AKSIYADORLIK JAMIYATI

100084, Toshkent sh., Yunusobod t., Osiyo k., 42.
Tel: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Veb sahifa: www.uzbekistonmet.uz



THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
JOINT STOCK COMPANY
“NATIONAL ELECTRIC
GRID OF UZBEKISTAN”

42, Osiyo str., Yunusobod dist., 100084, Tashkent
Ph: (998-71) 208-56-01
e-mail: info@uzbekistonmet.uz
Web site: www.uzbekistonmet.uz

24.10.2025-yil
01-02-18/7622-son

“Mega Steel Trade Pro” MCHJ QKga

*110200, Toshkent viloyati, Ohangaron sanoat
zonasi. megasteeltrade@pro@mail.ru*

nusxasi: **“Toshkent MET” filialiga**

*2025-yil 13-oktabrdagi
522/22-sonli murojaatga*

Murojaatga binoan, “Mega Steel Trade Pro” MCHJ QK investitsiyalar kiritgan holda metall mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishni rejalashtirib, “Toshkent MET” filialiga qarashli 220/110/10 kVli “Adolat” podstantsiyasidan chiquvchi 110 kVli “L-A-A-2” elektr uzatish havo tarmog‘idan alohida shaxobcha qurish (otpayka) yo‘li orqali elektr tarmog‘iga ulanish hamda korxona faoliyatini kengaytirish uchun qo‘shimcha 20 MVt elektr quvvatga mos podstantsiya qurish yuzasidan so‘ragan murojaati ko‘rib chiqildi.

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-iyundagi “Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 338-son qarorining III-bo‘limi talablariga muvofiq Toshkent viloyati, Ohangaron shahar sanoat hududida joylashgan “Mega Steel Trade Pro” MCHJ QKga tegishli obyektning ishonchliligi bo‘yicha elektr ta‘minoti toifasi – II toifa, 20 MVt quvvatni ulash yuzasidan ixtisoslashgan loyiha tashkiloti tomonidan ulanish bo‘yicha tadqiqot o‘tkazilishi lozimligi ma‘lum qilinadi.

Magistral elektr tarmoqlaridan foydalanish qoidalariga asosan:

tarmoqqa ulanish tadqiqoti ixtisoslashgan loyiha tashkiloti tomonidan amalga oshirilishi;

tadqiqot so‘ralayotgan ulanishni tarmoqning ishonchliligiga ta‘sirini, tarmoqqa ulanish uchun texnik yechimlar tahlili, tarmoqqa ulanish nuqtasi infratuzilmasining texnik xarakteristikalarini, Foydalanuvchiga qo‘yiladigan texnik talablar;

Foydalanuvchiga qo‘yiladigan ekspluatatsiya talablari, tarmoqqa ulanish infratuzilmasini qurilishi xarajatlarini baholash va boshqalarni o‘z ichiga olishi;

tarmoqqa ulanish tadqiqotini amalga oshiruvchi tarmoq loyiha kompaniyasi barcha zaruriy tahlillarni (elektr energiyasi oqimlari, xavfsizlik, reaktiv quvvatni boshqarish, qisqa tutashuv toklari, statik va dinamik turg'unlik, elektr energiyasi sifati) o'tkazishi;

tarmoqqa ulanish tadqiqotida ulanish bo'yicha taklif etilgan variantlar tasdiqlangan Uzatish tizimini rivojlantirish rejasi bilan uyg'unlashtirilishi;

loyiha tashkiloti ishlab chiqilgan texnik yechimlarni Uzatish tizimi operatori va Tizim operatoriga kelishish uchun kiritishi;

podstansiyalar, elektr uzatish tarmoqlari va (yoki) transformatorlarning yuklanish darajasi maksimal qiymatiga yetgan bo'lsa, foydalanuvchi o'z hisobidan transformator yoki elektr uzatish tarmoqlarini o'zgartirish taklifini berishi mumkinligi belgilangani eslatib o'tiladi.



**Boshqaruv raisining
birinchi o'rinbosari
A. Nazirov**